

UDK 81-114.2

O‘ZBEK TILIDA ASSOTSIATIV MAYDON BIRLIKLARI MUNOSABATI

Nargiza Axmedova,

Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

E-mail: ashnargiza@gmail.comDOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18501895>

Annotatsiya: Ushbu maqolada assotsiativ sohaning o‘zbek tilidagi tavsifi, unga oid ilmiy qarashlar, maydonning markaziy va periferik birliklari o‘rtasidagi munosabat, maydonning leksik, semantik va sintaktik xususiyatlari, assotsiativ birliklar o‘rganilgan. Tajriba asosida assotsiativ birliklar orqali sintaktik birikmalarning shakllanishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: assotsiativ birliklar, assotsiativ maydon, antonimik munosabat, assotsiativ munosabat, stimuly so‘z.

Аннотация: В данной статье анализируются описание ассоциативного поля в узбекском языке, научные взгляды на него, единицы поля; соотношение между центральной и периферийной единицами поля; лексические, семантические и синтаксические особенности поля. На основе ассоциативного опыта анализируется образование синтаксических соединений через ассоциативные единицы.

Ключевые слова: ассоциативные единицы, ассоциативное поле, антонимическое отношение, ассоциативное отношение, слово-стимул.

Annotation: This article analyzes the description of the associative field in the Uzbek language, scientific views on it, units of the field; the ratio between the central and peripheral units of the field; lexical, semantic and syntactic features of the field. On the basis of associative experience, the formation of syntactic compounds through associative units is analyzed.

Key words: associative units, associative field, antonymic relation, associative relation, stimulus word.

Kirish. Olamning lisoniy manzarasi tahlilida insonning tashqi olam haqidagi tasavvuri va uning tilda aks etishi masalasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Olamning tilda aks etishida assotsiativ tafakkurning o‘rni, til birliklarining assotsiativ aloqasi, shu aloqaga ko‘ra ma’lum guruhlariga birikuvi, gapni yoki matnni hosil qilishdagi o‘rni assotsiativ yondashuvning ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Tilni o‘rganishga assotsiativ yondashuv, assotsiativ tahlil metodlari til materiallarini uning egasidan alohida o‘rganishga yo‘l qo‘ymaydi. Assotsiativ tahlil asosida muayyan til egalarining voqelikni idrok etishi, kognitiv bilimi, lisoniy qobiliyati, lisoniy xotirasi imkoniyatlari, leksik birliklari zahirasi o‘rganiladi. Assotsiativ tahlil muayyan turtki so‘z asosida aniqlangan assotsiativ tajriba ma’lumotlariga tayanadi.

Assotsiativ tajriba natijasida turtki so‘zning assotsiativ maydoni shakllantirilib, u til birliklarining assotsiativ aloqasini aks ettiradi. Assotsiativ maydon “struktur jihatdan leksikografik xususiyatga ega bo‘lgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqdagi tasavvuri, bilimlarini

namoyish etuvchi tilning o‘zaro assotsiativ bog‘langan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari yig‘indisidir”[2].

Adabiyotlar tahlili. Assotsiativ maydon o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, shaxsning ruhiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari, olam haqidagi bilimlari bilan bog‘liq holda hayotiy tajribasi oshgan sari turtki so‘zga berilgan reaksiyalari turli xil bo‘lishi mumkin.

Rus tilshunosi Y.N.Karaulov assotsiativ maydonga insonning nafaqat verbal xotirasi, bilimlari, balki tildagi semantik va grammatik munosabatlar, shuningdek, ongda obrazlar, motivlar va u yoki bu madaniyat vakillari bahosining yig‘indisidir, deb ta’rif beradi[3].

Assotsiativ maydon yakka shaxs yoki ko‘p sonli til egalari ustida assotsiativ tajriba o‘tkazish va olingan natijalarni umumlashtirish asosida ham hosil qilinadi. Yakka shaxsda o‘tkazilgan assotsiativ tajriba materiallari asosida individual assotsiativ maydon yuzaga keladi. Ammo ko‘p sonli sinaluvchilarda assotsiativ tajriba o‘tkazish orqali shakllantiriladigan assotsiativ maydon jamoaviy xarakterga ega bo‘ladi[4]. O‘zbek tilshunosligida assotsiativ maydon va u haqdagi qarashlar bilan D.Lutfullayeva, N.Hoshimova, B.Tojiboyev, H.Ortiqova kabi tilshunoslar ishlari orqali tanishish mumkin[5].

Assotsiativ maydon birliklari til egalarining turtki so‘z bilan bog‘liq tasavvurlari, bilimi, hayotiy qarashlari, tajribasi, qiziqishlarini ifoda etadi. U turtki so‘zning mohiyatini ochib beruvchi butunlik vazifasini bajarib, til birliklarida davr o‘tishi bilan yuzaga kelgan ma’noviy o‘zgarishlarni ochib bera oladi.

Ma’lumki, assotsiativ maydonda stimuly so‘z vazifasini bajargan har bir birlikning semantik strukturasi, derivatsion, uslubiy xususiyatlari ochib beriladi. Assotsiativ maydon xususiyatlarini aniqlashda tavsiflash, tasniflash, assotsiativ tajriba usuli kabilardan foydalaniladi.

Tahlillar va natijalar. Navro‘z xalqimizning qadimiy milliy bayrami bo‘lib, ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan paytidir. O‘zbek tilida Navro‘z turtki so‘ziga ishora qiluvchi leksik, paremiologik, sintaktik vositalar mavjud bo‘lib, ular o‘zbek muloqot jarayonida faol qo‘llanadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da Navro‘z so‘ziga quyidagicha izoh berilgan: “Navro‘z forscha - yangi kun, shamsiya yil hisobida yangi yilning birinchi kuni, mart oyining 21-kuniga to‘g‘ri keladi[6].

“O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da navro‘z leksemasi tojik tilida “yangi” ma’nosini anglatadigan “nav” sifati bilan “kun” ma’nosini anglatadigan “ro‘z” otidan tuzilganini, “yangi yil boshlanadigan 21-mart kuni” ma’nosini anglatuvchi so‘z ekanligi aytib o‘tiladi[7].

N.Mirzayevning “O‘zbek tili etnografizmlarining izohli lug‘ati”da Navro‘z shamsiy yil hisobida yangi yilning boshlanish kuni ekanligi, u martning 21-22 kunlariga to‘g‘ri kelishi kabilar keltirib o‘tiladi[8].

Vatan tushunchasi til egalari lisoniy zaxirasida yuqoridagi ma'nolarni ifodalagan holda assotsiativ tarzda gavdalanadigan, millat bilan bog'liq tarzda qadimdan mavjud bo'lgan, xalq tomonidan e'zozlanadigan, qadriyat darajasida ulug'lanadigan, turmush darajasiga singib ketgan birlikdir.

Navro'z leksemasi assotsiativ maydoniga quyidagilar kiradi: o'zbek xalq milliy bayramlaridan biri, 21-mart kunida nishonlanadi, sayil, 21-mart, o'yinlar, bayram, bahor, bahor bayrami, yangilanish bayrami, momolar, bolalar, sumalak, kurash, ko'pkari, uloq, ko'katlar, ko'k somsa, tog' lola sayli, bayram, xursandchilik, sumalak, halim, qizlar, atlas, tabiatning uyg'onishi, adras, kiyimlar, jamalak, do'ppi, sayillar, ko'katlar, tengkunlik, lolalar, tog'lar, uyg'onish, shodiyona, o'yin-kulgu, atlas ko'ylak, karnay-surnay, gullagan daraxtlar, yoqimli havo, dorboz, masxarabozlar, kursdoshlarim, universitetdagi turli tadbirlar, Mehrjon, birinchi prezidentimiz Islom Karimov, milliy liboslarimiz, milliy taomlarimiz, har yili bahorda kun va tunning teng kunligi munosabati bilan 21-martda nishonlanadi, bahor fasli, quyoshli kunlar, mahalla, lapar, kuy-qo'shiq, san'atkorlar, oliyjanoblik, mehr-saxovat, tayyorgarlik, liboslar, issiq, o'yin, arqon tortish, raqs, raqqosalar, raqqos, dorboz, har kuning Navro'z o'lsin, soch o'rish va boshqalar.

Navro'z leksemasi assotsiativ maydonining yuqori chastotali birliklari quyidagilardan iborat bo'lib, ular maydonning yadro qismidan o'rin oladi: o'zbek xalq milliy bayramlaridan biri, 21-mart kunida nishonlanadi, sayil, 21-mart, o'yinlar, bayram, bahor, bahor bayrami, yangilanish bayrami, momolar, bolalar, sumalak, kurash, ko'pkari, uloq, ko'katlar, ko'k somsa, tog' lola sayli, bayram, xursandchilik, sumalak, halim, qizlar, atlas, adras, kiyimlar, jamalak, do'ppilar, uloq, momolar, sayillar, ko'katlar, lolalar, tog'lar, uyg'onish, bayram, shodiyona, o'yin-kulgu, atlas ko'ylak, sumalak, ko'k somsalar, karnay-surnay, gullagan daraxtlar, yoqimli havo, dorboz, masxarabozlar, kursdoshlarim, universitetdagi turli tadbirlar va boshqalar.

Quyidagi javob reaksiyalari assotsiativ maydonning chekka qismidan o'rin oladi: birinchi prezidentimiz Islom Karimov, milliy liboslarimiz, milliy taomlarimiz, har yili bahorda kun va tunning teng kunligi munosabati bilan 21-martda nishonlanadi, bahor fasli, quyoshli kunlar, mahalla, lapar, kuy-qo'shiq, san'atkorlar, tayyorgarlik, liboslar, issiq, o'yin, arqon tortish, raqs, raqqosalar, raqqos va boshqalar.

Assotsiativ maydondan so'z, so'z birikmasi va gap shaklidagi javob reaksiyalari o'rin olgan.

Assotsiativ maydonda Navro'z leksemasi quyidagi birliklar bilan paradigmatic munosabatga kirishadi:

1) sinonimik munosabat: *yangi kun, 21-mart, yangilanish bayrami;*

2) partonimik munosabat: maydondan Navro'z so'zi bilan qism-butun munosabatiga kirishadigan *sumalak, kurash, ko'pkari, uloq, ko'katlar, ko'k somsa* kabi birliklar ham o'rin olgan;

3) giponimik munosabat: Navro‘z so‘zi maydondagi bayram so‘zi bilan tur-jins munosabatiga kirishadi.

Assotsiativ maydon birliklarining grammatik-struktur belgilari:

Navro‘z leksemasi assotsiativ maydonida *turtki so‘z + assotsiativ birlik* munosabatida quyidagi aloqa-bog‘lanish turlari kuzatiladi:

Tobe aloqa usullari: a) boshqaruv usuli *Navro‘z* turtki so‘zi bilan assotsiativ bog‘langan javob reaksiyalarining o‘zaro sintagmatik munosabatida kuzatiladi, ya‘ni: *arqon tortish, bayramga tayyorgarlik*;

b) moslashuv usuli: *bahor bayrami, tabiatning uyg‘onishi*;

c) bitishuv usulida: *yangilanish bayrami, ko‘k somsa, lola sayli, atlas ko‘ylak, gullagan daraxtlar, yoqimli havo, quyoshli kunlar*.

Assotsiativ maydonda struktur jihatdan quyidagi tuzilishli birliklar o‘rin olgan:

sodda so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: *sumalak, halim, qizlar, atlas, adras, kiyimlar, jamalak, do‘ppilar, momolar, sayillar, kurash, ko‘katlar, lolalar, tog‘lar, uyg‘onish, shodiyona, sumalak, ko‘pkari, uloq kabilar*;

qo‘shma so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: *tengkunlik, oliyjanoblik kabilar*;

juft so‘z shaklidagi assotsiatsiyalar: *karnay-surnay, kuy-qo‘shiq, o‘yin-kulgu, mehr-saxovat kabilar*;

birikma shaklidagi assotsiatsiyalar: *yangilanish bayrami, atlas ko‘ylak, gullagan daraxtlar, quyoshli kunlar kabilar*;

gap shaklidagi assotsiatsiyalar: *21-mart kunida nishonlanadi, har yili bahorda kun va tunning teng kunligi munosabati bilan 21-martda nishonlanadi, har kuning Navro‘z o‘lsin kabilar*.

Assotsiativ maydondan o‘ziga xos konnotativ birliklar o‘rin olgan bo‘lib, ularning ayrimlari *navro‘z* leksemasi bilan bevosita bog‘liq barqaror birliklar – maqollar hisoblanadi: *Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas, Mizondan so‘ng yoz bo‘lmas; har kuning Navro‘z o‘lsin*.

Navro‘z leksemasining assotsiativ maydonidan o‘rin olgan *kurash, ko‘pkari, uloq, arqon tortish, soch o‘rish* kabi birliklar milliy-madaniy xususiyatga egaligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Leksemaning assotsiativ ma‘nosi leksik ma‘no kabi so‘z orqali reallashadi, biroq leksik ma‘no leksemada o‘z ifodasini topsa, assotsiativ ma‘no til egalari lisoniy ongida muayyan leksik birlik bilan bog‘liq tarzda shakllanadi. Assotsiativ ma‘no leksemaning nafaqat semantik jihati, grammatik shakli, intonatsion xususiyati, so‘z yasaliş strukturasi, uslubiy, dialektal belgisi kabi lingvistik omillar, balki ekstralingvistik omillar asosida ham hosil bo‘ladi[9].

Xulosa. Demak, Navro‘z turtki so‘zi assotsiativ maydoni bir nechta sath birliklari yordamida voqelanadi. Leksik birliklar mavzu jihatdan turli xil ekanligi bilan boshqalaridan farqlanadi. Maydondan o‘rin olgan sintaktik birliklar, maqollar o‘zbek xalqi

muloqot jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Xalq ogʻzaki ijodi, yozma adabiyot, ogʻzaki soʻzlashuv uslubida milliy-madaniy xususiyatga ega boʻlgan bunday birliklar faol ishlatilishi bilan xarakterlanadi.

Navroʻz turtki soʻzi asosida aniqlangan assotsiativ maydonda maydonga mansub birliklar sinonimik, uyadoshlik, tur-jins asosida paradigmatic munosabatga kirishadi. Assotsiativ maydonni grammatik-struktur belgilari va pragmatik xususiyatlari asosida oʻzaro bir tizimga uyushadigan birliklar tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. 58-б.
2. Караулов Ю.Н. Русский ассоциативный словарь. Кн.1, ч. 1. – М., – С. 6.
3. Тожибоев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент, 2020. 46-б.
4. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.; Хошимова Н.А. Ўзбек тилида ассоциатив муносабатлар: Филол. фан. бўй. фалс. фан. докт. дисс. автореф. – Фарғона, 2018.; Тожибоев Б. Ўзбек тили миллий-маданий бирликларининг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент, 2020.;
5. Ортиқова Х. Бадиий матннинг ассоциатив тадқиқи: филол.фан.бўйича (PhD) фалс.докт.дисс. – Тошкент, 2022.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. 8-б.
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (форсча, тожикча бирликлар ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: университет, 2009. 147-б.
8. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1991. 57-б.
9. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. 25-б.

